

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## BIOLOGIYA

**D.R.Kapizova, I.I.Zokirov**

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili  
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) ..... 101

**R.N.Mo'minova**

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari ..... 106

**С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова**

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого  
рогатого скота Каракалпакстана ..... 110

**S.B.Orifov, F.R.Xolboyev**

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati .... 116

**N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva**

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) ..... 121

**M.A.Axmadjonova**

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga  
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari ..... 127

**V.A.Karimov, M.Nazarov**

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish ..... 133

---

## GEOGRAFIYA

**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish ..... 142

**I.O.Sulaymonov**

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari ..... 146

**Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev**

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi ..... 150

**I.Aripov, R.Mariya**

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining  
iqtisodiy baholanishi ..... 154

**A.U.Usmonov, A.K.Ergashev**

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari  
(Vobkent tumani misolida) ..... 161

**O.N.Xakimov**

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi ..... 166

**O.N.Xakimov**

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni ..... 178

---

## ILMIY AXBOROT

**Y.E.Altiboyev**

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili ..... 190

**A.A.Akramov**

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini  
takomillashtirish modeli ..... 195

**M.J.Urinov**

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga  
falsafiy tavsif ..... 199

**B.F.Abdishukurov**

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar  
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) ..... 203

**A.M.To'rayev**

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish....207

**Sh.M.Kadirov**

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini  
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 210



УО'К: 581.4.144

**QORADARYO HAVZASI YUKSAK SUV O'SIMLIKARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЫСШИХ ВОДНЫХ РАСТЕНИЙ БАССЕЙНА КАРАДАРЬИ**

**BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HIGH WATER PLANTS OF THE KARADARYA BASIN**

Mo'minova Ra'noxon Nabijanovna 

Qo'qon davlat pedagogika instituti, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

*Qoradaryo suv havzalarida o'suvchi o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, mahsuldarligi va kimyoviy tarkibiga ba'zi omillarning ta'siri hamda ularidan xalq xo'jaligida foydalanish to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Suvda o'suvchi o'simliklarni o'rganishni osonlashtirish uchun, avvalo, ular uchta katta gruppaga; suvda qalqib o'suvchi, suvga yarim botib o'suvchi va suv qatlamida o'suvchi o'simliklarga bo'lib bayon etiladi. Qoradaryo havzasidagi o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan yuksak suv va suv botqoq o'simliklar florasini o'rganish, hozirgi zamонави tizimini ishlab chiqishni maqsad qilib olindi.*

*Buni amalga oshirish uchun: adabiy manbalardagi mavjud yuksak suv va suv botqoq o'simliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish; Daryo havzasidagi tabbiy va sun'iy suv havzalardagi yuksak suv va suv botqoq o'simliklarining namunalari (gerbariyalarini) yig'ish va uni aniqlashdan iborat.*

Suv va suv botqoq o'simliklar ichida em-xashak, qurilishbop, dorivor vitaminlini, asal - shirali, kraxmalli, manzaralni turlari juda ko'p. Kun sayin suv o'simliklari hom - ashynosiga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Qoradaryo havzasidan 240 dan ziyo'd yuksak suv va suv botqoq o'simliklarining na'munalari yig'ildi va ularni tahlil qilish natijasida 4 ta bo'lim, 5 ta sinf, 12 ta sinfcha, 25 ta qabila, 29 ta oila, 47 ta turkumga oid 114 ta tur aniqlandi. Bular orasida etakchi oilalar: Poaceae (21 tur), Cyperaceae (19), Potomagetonaceae (6 tur), Typhaceae (8 tur) aniqlandi. Aniqlangan yuksak suv va suv botqoq o'simliklar ichida yem - xashak, qurilishbop, dorivor, vitaminlini, asal - shirali. Kraxmal, manzaralni turlari juda ko'p. Kelajakda ular orasidan istiqbolli turlarni ajratib olish va introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini o'rganish, yalpi ko'paytirish usullarini ishlab chiqish va xalq xo'jaligiga tadbiq qilish tavisu etiladi.

**Аннотация**

Дается информация о влиянии некоторых факторов на рост, развитие, продуктивность и химический состав растений, произрастающих в водоемах Карадарьи, а также об их использовании в народном хозяйстве. Чтобы облегчить изучение растений, растущих в воде, они сначала делятся на три большие группы: растения, которые плавают в воде, растения, которые растут наполовину погруженными в воду, и растения, которые растут в водоносном горизонте. Изучение неисследованной или малоизученной флоры водоно-болотных угодий и водоно-болотных угодий бассейна Карадарьи было направлено на разработку современной системы водоно-болотных угодий.

Для этого поставлена цель: анализ имеющихся данных о высших водных и водоно-болотных растениях в литературных источниках; сбор образцов (гербариев) высших водных и водоно-болотных растений в естественных и искусственных водоемах речного бассейна и его идентификация.

Среди водных и водоно-болотных растений много кормовых, строительных, лекарственных витаминных, медоносных, крахмалистых, декоративных видов. С каждым днем спрос на сырье для водных растений растет. Было собрано более 240 образцов высших водных и водоно-болотных растений из бассейна Карадарьи, и в результате их анализа было выявлено 114 видов, относящихся к 4 отделам, 5 классам, 12 классам, 25 родам, 29 семействам, 47 родам. Выявлены высоководные и водно - болотные растения в кормовых, строительных, лекарственных, витаминных, медово - суккулентных. много крахмалистых, декоративных видов.

В дальнейшем целесообразно выделить среди них перспективные виды и изучить их биоэкологические особенности в условиях интродукции, разработать методы размножения и внедрить в народное хозяйство.

**Abstract**

*Information is provided on the influence of some factors on the growth, development, productivity and chemical composition of plants growing in the Karadarya reservoirs, as well as their use in the national economy. To facilitate the study of aquatic plants, first of all, they are divided into three large groups; It is divided into plants that grow floating in water, plants that grow half-submerged in water, and plants that grow in the water layer. The study of the unexplored or*

**BIOLOGIYA**

*little-explored high-water and wetland flora of the Karadarya basin and the development of the current modern system were aimed at.*

*To do this: analyze the available information on upland and wetland plants in literary sources; Collection and identification of samples (herbariums) of high-water and wetland plants in natural and artificial water bodies in the river basin.*

*There are a lot of forage, building, medicinal, vitamin, honey-juicy, starchy, ornamental species among water and wetland plants. The demand for raw materials of aquatic plants is growing day by day. More than 240 samples of high water and wetland plants were collected from the Kara Darya basin, and as a result of their analysis, 4 sections, 5 classes, 12 subclasses, 25 tribes, 29 families, 47 genera were collected. 114 species were identified. The leading families among them are: Poaceae (21 species). Cyperaceae (19), Potomagetonaceae (6 species), Typhaceae (8 species) were identified. Among the identified high-water and wetland plants are fodder, building material, medicinal, vitamin, honey - succulent. There are a lot of starchy and ornamental species. In the future, it is recommended to isolate promising species from among them and to study their bioecological characteristics under the conditions of introduction, to develop mass breeding methods and to apply them to the national economy.*

**Kalit so'zlar:** Qoradaryo suv havzasi, yuksak suv va suv botqoq o'simliklar florasi, organo-mineral moddalar va BPK<sub>5</sub>, em-xashak, qurilishbop, dorivor vitaminli, asal - shirali, kraxmalli, manzarali turlari

**Ключевые слова:** бассейн Карадары, флора водных и водо-болотных растений, органоминеральные и BPK<sub>5</sub>, кормовые, строительные, лекарственные витаминные, медоносные, крахмалистые, декоративные виды.

**Key words:** Karadarya pond, high water and water marsh flora, organo - mineral modular and BPK<sub>5</sub>, forage, construction, driver vitamin, honey-juicy, starchy, ornamental species

**KIRISH**

Suv o'simliklari katta rezervlardan biridir. Ulardan foydalansila, birinchidan, chorvachilikka katta foya keltiriladi, ikkinchidan, suvning dimlanishi va ikkilamchi ifloslanishining oldi olinadi. Hozirgacha ulardan foydalansilmay kelinmoqda. Bahor va kuz paytlarida ko'p qamishzorlarga o't qo'yib yuboriladi. Bir ga. suv yuzidan 220-230 tonna qamish; 140-150 tonna Xara suvo'ti; 50-60 tonna gidrilla; 60-70 tonna qo'g'a, 20-30 tonna qunduzquloq; kuniga 2-3 tonna, oyiga 60-70 tonna spirodela, kuniga 1,5—2,1 tonna, oyiga 40-45 tonna yashil biomassa bo'lishi mumkin.

Qoradaryo suv havzalarida o'suvchi o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi va kimyoiy tarkibiga ba'zi omillarning ta'siri hamda ulardan xalq xo'jaligida foydalananish to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Suvda o'suvchi o'simliklarni o'rganishni osonlashtirish uchun, avvalo, ular uchta katta gruppaga; suvda qalqib o'suvchi, suvga yarim botib o'suvchi va suv qatlamida o'suvchi o'simliklarga bo'lib bayon etiladi. suv va suv botqoq o'simliklar ichida yem-xashak, qurilishbop, dorivor, vitaminli, asal - shirali, kraxmalli, manzarali turlari juda ko'p. Kun sayin suv o'simliklari xom - ashyosiga bo'lgan talab o'sib bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

I.L.Korelyakova va I.I.Raspopovlarning [1] ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha yuksak suv o'simliklarining umumiyligi soni 3 mingga yaqin, ulardan MDH da ta 403 turi ma'lum. Respublikamiz suv havzalarida 100 dan ziyod yuksak suv o'simliklari turi uchraydi [3], [2].

Ma'lumki, suv va suv botqoq o'simliklar ichida yem-xashak, qurilishbop, dorivor, vitaminli, asal - shirali, kraxmalli, manzarali turlari juda ko'p. Kun sayin suv o'simliklari xom - ashyosiga bo'lgan talab o'sib bormoqda.

Yuksak suv va suv botqoq o'simliklari o'zining to'yimliligi va hosildorligi jihatidan boshqa yem-xashak o'simliklaridan ajralib turadi. Masalan, qamish vegetasiya davrida 1 ga suv yuzasidan 250 t ho'l yoki 100-110 t gacha quruq massa beradi, qo'g'alar esa, 50-100 t gacha ho'l yoki 10-12 t gacha quruq massa, shohbarg 60-300 t (6-25 t), rdestlar 20-40 t (2,5-3,5 t) gacha biomassa beradi. Ryaska biomassasida 21,9-30,4% oqsil, 4-5% yog', 20-35% kraxmal, 263,4-612,1 mg/kg karotin, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, E, PP va boshqa vitaminlar, kaltsiy 1,1-6%, fosfor 0,48-2,25%. magniy 0,35-2,11% uchraydi [3].

Suv va suv-botqoq yuksak o'simliklarini yig'ish va uni tadqiq qilishda V.M.Katanskaya [5]dan foydalaniidi. O'Pratov va T.Odilovlarning "O'zbekistonning yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va O'zbekcha nomlari" nomli metodik qo'llanmasidan foydalaniildi.[6]

Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, O'zbekistonga introduksiya qilingan pistiya oqava suvlarda o'stirilganda bir kecha kunduzda 1 m<sup>2</sup> suv yuzasidan 1 kg gacha yoki mavsumda 1 ga suv yuzasidan 1800-2700 t gacha ho'l massa yoki 90-135 t gacha quruq massa berishi aniqlangan.[4]

Uning biomassasi oqsil, karbon yog'lar, suvlar, vitaminlar, turli xil mikroelementlarga, fiziologik faol moddalarga boydir. Ayrim oziqa moddalar bo'yicha pistiya ko'pincha suv va yerda o'sadigan yem-xashak o'simliklardan ustun turadi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yuksak suv o'simliklar, ayniqsa, suvgaga botib o'sadiganlari biologik filtr vazifasini bajaradi va suvni erigan kislorod bilan boyitadi. Yuksak suv o'simliklari o'sayotgan suv kislorod bilan boyiydi, undagi organo-mineral moddalar va BPK<sub>5</sub> (kislorod miqdorining biokimyoiy jarayonlar uchun sarfi) miqdori kamayadi.

Undan tashqari ko'pincha yuksak suv va suv botqoq o'simliklari ichida efir moyli, glikozidli va antibiotik xususiyatiga ega bo'lgan turlari juda ko'p va ulardan dori-darmon hom-ashyosi sifatida foydalanish mumkin. Hozirgi paytgacha O'zbekiston suv havzalarining yuksak suv va suv botqoq o'simliklari to'liq o'rganilmagan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Qoradaryo havzasidagi o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan yuksak suv va suv botqoq o'simliklar florasini o'rganish, hozirgi zamonaviy tizimini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

Buni amalga oshirish uchun: adabiy manbalardagi mavjud yuksak suv va suv botqoq o'simliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish; Daryo havzasidagi tabiiy va sun'iy suv havzalardagi yuksak suv va suv botqoq o'simliklarining namunalari (gerbariyatlari)ni yig'ish va uni aniqlashdan iborat.

Ma'lumki, suv va suv botqoq o'simliklar ichida yem-xashak, qurilishbop, dorivor vitaminlini, asal - shirali, kraxmalli, manzarali turlari juda ko'p. Kun sayin suv o'simliklari xom - ashysiga bo'lgan talab o'sib bormoqda.

2021-2024-yillarda Qoradaryo havzasidan 240 dan ziyod yuksak suv va suv botqoq o'simliklarining na'munalari yig'ildi va ularni tahlil qilish natijasida 4 ta bo'llim, 5 ta sinf, 12 ta sinfcha, 25 ta qabila, 29 ta oila, 47 ta turkumga oid 114 ta tur aniqlandi. Bular orasida etakchi oilalar: Poaceae (21 tur), Cyperaceae (19), Potomagetonaceae (6 tur), Typhaceae (8 tur).

Masalan, Xushbuy igir (*Acorus calamus L.*) o'simligi suv havzalarining sayozroq (50 sm) qismida juda keng tarqalgan. Uning qilichsimon barglarining eni 2-2,5 sm va uzunligi 1,5 metrgacha boradi. Gullari 6-9 sm uzunlikdagi yashil so'taga zinch joylashgan. Bu so'ta bargga o'rashgan bo'ladi. Bu o'simlik tiganak ildizi bilan ko'payadi. Uning tarkibida 5-6% oqsil, 5,8% yog', 6,8% qand, 34% dan kuprok kraxmal, 6,5% kletchatka, 2,5-5% efir moylari borligi aniqlangan. Xushbuy igir C vitaminiga juda boy. Bu o'simlik Janubiy-Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan. XVI asrda Janubiy Hindistondan Portugaliyaga uning tiganak ildizi keltirilib madaniylashtirilgan. U erdan Evropa va boshqa erlarga tarqalgan. Xushbuy igir xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladi. Uning bargi va poyasi teri oshlashda ishlatiladi. Bu o'simlik efir moylariga boy bo'lgani uchun, uning tiganak ildizi oziq-ovqat sanoatida, medisinada, parfyumeriyada, aroq, liker ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Shuning uchun u Hindiston, Shri Lanka va Evropaning ba'zi mamlakatlarida madaniy o'simlik sifatida ekib ko'paytiriladi. Bu o'simlikning tiganak ildizi eksport qilinadigan eng qimmatli xomashyodir. U yovvoyi hayvonlar va parrandalar uchun ham ozuqadir. Yuqorida keltirilgan va sanab o'tilgan barcha suvgaga yarim botib o'suvchi o'simliklar qimmatli ozuqaviy xususiyatga ega bo'lgan o'simliklardir. Ular ho'llik paytida chorvachilikda, parrandachilikda, quyonchilikda, baliqchilikda, mo'ynali hayvonlarni boqishda vitamin va oqsillarga boy ozuqa sifatida ishlatiladi.

Bu o'simliklardan silos, vitaminli o't uni va unga yem, mikroelementlar, mineral tuzlar qo'shib briketlar tayyorlash mumkin.

Qo'g'a (*Tupha angustifolia L.*) Bu o'simlik lux deb ham ataladi. U 0,5-1,2 m chuqurlikdagi chuchuk va uncha sho'r bo'lmagan suv havzalarida keng tarqalgan. Namli erlarda ham o'sadi, lekin tuproqning qurib qolishiga chidamaydi. Bu o'simlikning ingichka bargli turi kup tarqalgan, poyasi va bargining uzunligi 4-5 m bo'ladi, bargi tasmasimon, eni 2-2,5 sm. Poyasi uchinchi yili paydo buladi, yumshoq, tsilindrishimon, bargidan kalta, poyasining uchi 15-20 sm keladigan tiqis, qizg'ish-qo'ngir boshoq bilan tugallanadi.

Boshog'i juda ko'p uchgichlarning birlashib turishidan iborat. Boshogqa sal tegilsa, havoda to'zib ketadi. Har bir uchgichning markaziga bitta urug'mahkamlangan bo'ladi. Ular shamol yordamida har erlarga borib tushadi. Ko'g'a tiganak ildizli kup yillik o'simlikdir. Uning tiganagida ikki xil ildiz: birinchi xili ingichka, yuqoriga, suvning katlamiga qarab o'sib, suvda erigan ozuqa

**BIOLOGIYA**

moddalarni o'zlashtirish va o'simlikning nafas olishiga xizmat qiladi, ikkinchi xili yo'g'onroq patak ildiz bo'lib, tuprok katlamiga tarqaladi va o'simlikni tutib turish bilan birga tuproqdan ozuqa moddalarni o'zlashtirish vazifasini bajaradi.

Qo'g'aning tiganagi kraxmalga juda boy bo'lib, 46% ni tashkil qiladi.

Qirqquloq (*Salvinia natans*) paporotniklarning vakili bulib, suv yuzida qalqib o'suvchi jajji usimlikdir. Bu o'simlikning nozikkina 4-5 sm keladigan va gorizontal joylashgan poyasi bo'lib, uning yon tomonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki qator tuxumsimon bargchalar joylashgan. Poyasining tagidan suvning ichiga qarab yana bir qator bargchalar o'sgan bulib, bular ipsimon shaklga aylangan va qalin tukchalar bilan qoplangan, yashil rangga ega emas. Qirqquloqning ildizi yo'q, deb e'tirof etiladi.

Bu o'simlik chuchuk suvli ko'l, hovuz va oqmaydigan zovurlar yuzasida kalin yashil gilam hosil qiladi. Qirqquloq asosan vegetativ, ya'ni bachkilash va sporalar yordami bilan ko'payadi. Bu o'simlik bir metr kvadrat suv yuzasidan 1430 g yoki bir ga suv yuzasidan 143 ts yashil massa berishi va tarkibida 53,5 mg% karotin moddasining borligi aniqlangan. Qirqquloqning ozuqaviy xususiyatlari aniqlangan emas. Bu o'simlik suvdan har xil organik va mineral moddalarni o'zlashtirib, o'zida kechadigan fotosintez jarayoni natijasida suvga kup mikdorda kislorod ajratib chiqaradi, suvning sanitar holatini yaxshilaydi.

Bundan tashqari, qirqquloq o'sgan suvda bezgak kasalini tarqatuvchi chivin lichinkasining rivojlanmasligi aniqlangan. Bu o'simlikni uy va laboratoriya sharoitlarida, akvariumlarda osonlik bilan ko'paytirish mumkin.

Suvkaram (*Pistia stratiotes L.*) ryaska o'simliklari singari suvning yuzida qalqib o'sadi, lekin undan ancha kattaroqdir. Suvkaram oddiy sharoitda o'sganda uncha katta bo'lmaydi, ammo organik va mineral moddalarga boy bo'lgan suvlarda hamda cho'chqachilik kompleksidan chiqadigan oqova suvlarda o'stirilganda bosh o'rashda - rajasiga etgan karam o'simligidek bo'lishi mumkin. Yashil massasining tarkibida 5% oqsil, 50,7% uglevodlar, shu jumladan 27,1% kletchatka, 1,2% yog', 8% mineral moddalar bor. Ondatra, nutriya, yovvoyi chuchkalar uning yashil qismi va tiganagini juda yaxshi iste'mol qiladi. Qo'g'aning tiganagidan un olib, chorvachilikda foydalanish mumkin. Bu undan spirit olish, kisel tayyorlash mumkin. Javdar va bug'doy uniga qo'shib non ishlab chiqarishda ishlatish mumkin. Tiganagi xalq tabobatida dori sifatida ishlatiladi. Bargidan chipta, namat, Korzinka va boshqa xil narsalar to'qiladi.

Turlar ichida haqiqiy suv o'simliklari (gidatofitlar) 30 ta, tanasining yarmi suvda, yarmi suvdan yuqorida o'suvchi o'simliklar (gidrofitlar) - 61 ta, suv bo'ylarida, o'ta sernam joylarda o'suvchi o'simliklar (gigrofitar) - 23 tani tashkil etadi.

**XULOSA**

1. 2021-2024 yillarda Qoradaryo havzasidan 240 dan ziyod yuksak suv va suv botqoq o'simliklarining na'munalari yig'ildi va ularni tahlil qilish natijasida 4 ta bo'lim, 5 ta sinf, 12 ta sinfcha, 25 ta qabila, 29 ta oila, 47 ta turkumga oid 114 ta tur aniqlandi. Bular orasida yetakchi oilalar: *Cyperaceae* (19), *Poaceae* (21 tur), *Typhaceae* (8 tur), *Potomagetonaceae* (6 tur), aniqlandi. Aniqlangan haqiqiy suv o'simliklari (gidatofitlar) 30 ta, tanasining yarmi suvda, yarmi suvdan yuqorida o'suvchi o'simliklar (gidrofitlar) - 61 ta, suv bo'ylarida, o'ta sernam joylarda o'suvchi o'simliklar (gigrofitar) - 23 tani tashkil etadi.

Aniqlangan yuksak suv va suv botqoq o'simliklar ichida yem - xashak, qurilishbop, dorivor, vitaminli, asal - shirali. kraxmal, manzarali turlari juda ko'p. Kelajakda ular orasidan istiqbolli turlarni ajratib olish va introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini o'rganish, yalpi ko'paytirish usullarini ishlab chiqish va xalq xo'jaligiga tadbiq qilish tavsiya etiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Korelyakova va I.I. Raspovov Strukturni osobennosti flori vodoyomov. Tezisi dokladov.Borok. 2008.
2. Keldibekov S. Flora I rastitelnost ribovodnix prudov Chirchik-Angrenskogo basseyna. T.2001.
3. Taubaev T.T., Abdiev M., Ryaski vodoyomov Uzbekistana I ix ispolzovanie v narodnom xozaystve. T.2003.
4. Shoyakubov R.Sh. Biologiya pistii telorezovidnoy i vozmojnosti ee prakticheskogo ispolzovaniya T. 2003.
5. Katanskaya V. M. Suv o'sishi bo'yicha tadqiqot metodologiyasi.M. 1981 yil.
6. Pratov O'va. OdilovT.O'zbekistonning yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari T.1995.